Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 372.30
ORCID: 0009-0001-5470-2716

GLOBALLASHUV SHAROITIDA PEDAGOG SHAXSI VA KASBIY TAYYORGARLIGIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Nurullayeva Shaxlo Uktamovna
Qarshi davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori, professor
E-mail: shaxlo_nur73@mail.ru

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar pedagoglar faoliyat mazmuniga unga qo'yiladigan talablarga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Taraqqiyotning ijtimoiy faoliyat turlariga ta'siridan kelib chiqqan holda maqolada o'qituvchining pedagogik faoliyat mazmuni, mahorati, qobiliyati, kompetentligi masalalari hamda pedagogik faoliyatiga, ijtimoiy-ma'naviy qiyofasiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar va ta'sir ostida yuzaga keladigan o'ziga xos o'zgarishlarni o'rganish maqsad qilingan. Maqolaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda o'qituvchining ijtimoiy-ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablarni o'rganishda turli ilmiy va pedagogik manbalar qiyosiy tahlil qilingan, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarilgan, ilmiy va empirik tajribalardan foydalanilgan. Mazkur tahlillar asosida maqolada pedagogik mahorat va qobiliyat mazmuni, pedagogik faoliyat turlari va unga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining ijtimoiy muhitdagi o'rni, ma'naviy qiyofasi, kasbiy kompetentligi muammolari ochib berilgan. Pedagogik qobiliyatni o'qituvchi mahoratining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida turlari, shakllanish bosqichlari, pedagogik faoliyatga ta'siri tahlil qilingan. O'qituvchining pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishidagi asosiy bilim, ko'nikma, malakalari va ijtimoiyligi hamda amaliy faoliyati yig'indisi sifatida kasbiy kompetentlikka doir ilmiy manbalar tahlili borasida alohida to'xtalib o'tilgan. Kasbiy kompetentlik turlari hamda ularni egallashning ahamiyati haqidagi tahlillar keltirib o'tilgan. O'qituvchining jamiyatdagi turli jarayonlarga faol ishtiroki hamda rivojlanishlarning ta'sirini o'rganish asosida pedagogning faoliyatidagi liderlik sifatlari, kommunikativ sifatlar, ijtimoiy kompetensiyalari, faol muloqot jarayoniga psixologik va pedagogik tayyorgarligi masalalari hamda ushbu sifatlarni bo'lajak o'qituvchilarda shakllantirish yo'llari borasida asosli xulosalar keng bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, jamiyat, o'qituvchi faoliyati, ijtimoiy muhit, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, bilimdonlik, kasbiy bilim, pedagogik tajriba, insonparvarlik, zamonaviylik

ТРЕБОВАНИЯ К ЛИЧНОСТИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ ПЕДАГОГА В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: Изменения в современном обществе отразились на содержании деятельности педагогов и требованиях, предъявляемых к ним. Исходя из влияния прогресса на виды социальной деятельности, статья направлена на изучение вопросов содержания педагогической деятельности, умений, способностей, компетентности педагога, а также специфических изменений, происходящих под влиянием требований и воздействий общества на педагогическую деятельность, социально-духовный образ учителя. Исходя из основной

цели статьи, при исследовании требований к социально-духовному образу учителя были проведены сравнительный анализ различных научно-педагогических источников, сделаны индуктивные и дедуктивные выводы, использованы научные и эмпирические эксперименты. На основе проведенного анализа в статье раскрываются содержание педагогических умений и навыков, виды педагогической деятельности и требования к ним, роль педагога в социальной среде, духовный образ, проблемы профессиональной компетентности. Проанализированы педагогические способности как один из основных компонентов мастерства учителя, его виды, этапы формирования, влияние на педагогическую деятельность. Особое внимание уделено анализу научных источников, касающихся профессиональной компетентности как совокупности основных знаний, умений, навыков и социальных качеств педагога в успешном осуществлении педагогической деятельности, а также его практической деятельности. Дан анализ видов профессиональной компетентности и важности их приобретения. На основе изучения активного участия учителя в различных процессах в обществе и влияния событий на вопросы лидерских качеств, коммуникативных качеств, социальных компетенций, психолого-педагогической подготовки к процессу активного общения и способов формирования этих качеств. у будущих учителей подробно излагаются обоснованные выводы.

Ключевые слова: педагог, общество, деятельность учителя, социальная среда, педагогическое мастерство, педагогические способности, компетентность, профессиональная компетентность, знания, профессиональные знания, педагогический опыт, гуманизм, современность.

REQUIREMENTS TO THE PERSONALITY AND PROFESSIONAL TRAINING OF A TEACHER IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Annotation: Changes in modern society have affected the content of teachers' activities and the requirements imposed on them. Based on the influence of progress on the types of social activity, the article is aimed at studying the issues of the content of pedagogical activity, skills, abilities, competence of a teacher, as well as specific changes occurring under the influence of the requirements and impacts of society on pedagogical activity, the socio-spiritual image of a teacher. Based on the main goal of the article, when studying the requirements for the socio-spiritual image of a teacher, a comparative analysis of various scientific and pedagogical sources was carried out, inductive and deductive conclusions were made, scientific and empirical experiments were used. Based on the analysis, the article reveals the content of pedagogical skills and abilities, types of pedagogical activity and requirements for them, the role of a teacher in the social environment, spiritual image, problems of professional competence. Pedagogical abilities as one of the main components of a teacher's skill, its types, stages of formation, and influence on pedagogical activity are analyzed. Particular attention is paid to the analysis of scientific sources concerning professional competence as a set of basic knowledge, skills, abilities and social qualities of a teacher in the successful implementation of pedagogical activity, as well as his practical activity. An analysis of the types of professional competence and the importance of their acquisition is given. Based on the study of the active participation of the teacher in various processes in society and the influence of events on issues of leadership qualities, communication skills, social competencies, psychological and pedagogical preparation for the process of active communication and ways of forming these qualities. Prospective teachers are given a detailed summary of the substantiated conclusions.

Key words: teacher, society, teacher's activity, social environment, pedagogical skills, pedagogical abilities, competence, professional competence, knowledge, professional knowledge, pedagogical experience, humanism, modernity.

KIRISH. Hozirgi davrda, biz mustaqil O‘zbekistonda qurayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko‘rsatadigan o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? Hozirgi zamon o‘qituvchisining shaxsi uchun eng muhim asos - bu insonparvarlik yo‘nalishidir. O‘qituvchi juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega odam. U doimiy ravishda o‘zi ustida ishlashi, ilm-fan yutuqlaridan xabardor bo‘lishi va o‘z faoliyatida samarali foydalana bilishi va o‘z o‘rnida o‘quvchilarini ham bilim olishga undashi lozimdir.

Demak, o‘qituvchi pedagogik mahoratining asosi o‘z ustida ishlab borish, ya’ni mustaqil o‘qishdir.

Har qanday sohada ham ushbu soha sirlarini mukammal egallagan mohir ustasi bo‘lishi tabiiy. Mohir mutaxassis bu sohaga doir tajribalarni faqat egallabgina qolmasdan, u yangiliklar qila oladi va tajribasini ommalashtirishga ham erishadi. Demak, pedagogika sohasining ham o‘z mahoratli mutaxassislari bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaga doir muhim yangiliklar yaratib, o‘z tajribasini targ‘ib qiladi. Albatta, pedagogik faoliyatida doimiy ravishda muvaffaqiyatlarga intilib, faoliyatining yuksak darajada baholanishini va hamma tomondan tan olinishini istamaydigan o‘qituvchi topilmasa kerak. Bunga erishishini, ana shu xil orzuning ushalishini pedagogik mahorat deymiz. Unga qanday erishsa bo‘ladi? Tarbiya berish va o‘qitishda yuqori natijalarga erishish, tajribalarini doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo etuvchi va bunday imkoniyatni beruvchi ta’lim-tarbiya berish san’ati bo‘lib, ushbu san’atni o‘z kasbini va bolalarni sevuvchi, o‘z ustida tinimsiz ishlovchi har bir o‘qituvchi egallashi mumkin. Mahoratli pedagog – milliy va umuminsoniy madaniyatni egallaydi, chuqur bilim egasi bo‘ladi, tegishli fan sohalarini yaxshi tahlil qila oladi, ta’lim-tarbiya metodikasini, pedagogik texnika asoslarini mukammal egallagan mutaxassisdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Pedagogik qobiliyat manbalarda birinchi bo‘lib XIX asr o‘rtalarida paydo bo‘ldi. Pedagogika nazariyasida o‘qituvchilar tayyorlash va perseptiv qobiliyatga A. Disterverg diqqat e’tibor berdi. Shunday qilib, Disterverg pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat’iy erkinlikka ahamiyat berdi. [1; 12-b.].

Disterverg fikrlarini K.D.Ushinskiy davom ettirdi. K.D.Ushinskiy “Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo‘li ishontirishdir, odamning e’tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta’sir qilish mumkin”, - deydi [2; 321-b.].

Qobiliyat tug‘ma bo‘lmay, uni yuzaga keltirishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan subyektiv shart-sharoit, layoqatgina tug‘ma bo‘ladi. Va u turli insonlarda turli darajada namoyon bo‘ladi. Maktab o‘qituvchisining faoliyati inson shaxsini tiklantirishga qaratilgan. Ushbu nuqtayi nazardan qaraganda, pedagogik faoliyatda o‘qituvchining muvaffaqiyati inson hayoti bilan bog‘liq, unga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. Demak, u pedagogik mahorat asoslarini chuqur egallashi lozim bo‘ladi. Pedgogik mahoratni egallagan mutaxassis yuqori natijalarga osonlik bilan erishadi. Pedagogik qobiliyatni o‘qituvchi faoliyat davomida yuzaga chiqaradi, rivlvojlantiradi. Qobiliyatni rivojlantirish uchun esa layoqat, zehn, iste’dod, ya’ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo‘lishi ham zarur. O‘qituvchining ba’zi psixik jarayonlari unda shaxsga xos sifatlarining shunday kompleksni tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin. Bu qobiliyatlarni ayrim psixik xususiyatlardan iborat qilib qo‘yish mumkin emas. Ta’lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli bo‘lishini pedagog

shaxsiga xos bo‘lgan bir qancha sifatlar, shu jumladan, uning irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos bo‘lgan bir qancha xususiyatlarini ham ta’minlab beradi. K.D.Ushinskiy “Faqat shaxsgina shaxsning rivojlanishiga va tarkib topishiga ta’sir qilishi mumkin, faqat xarakter ta’siri bilan xarakterni vujudga keltirish mumkin”, - [2; 348-b.] deb yozgan edi.

Qobiliyat - shaxsning muayyan faoliyat yuzasidai layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir.

Falsafa tarixida qobiliyat uzoq davrgacha o‘zgarmas irsiyat, nasldan naslga o‘tuvchi alohida kuch sifatida talqin etilgan. Bunday qarashlar dastlab ingliz filosofi J.Lokk va fransuz materialistlari tomonidan tanqid qilingan. Qobiliyatni rivojlantirishi mumkin bo‘lgan anatomik fiziologik xususiyatlar tug‘ma bo‘ladi.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, pedagogik texnika bu – o‘qituvchining talabalarga shaxsan ta’sir o‘tkazish usullarining yig‘indisidir.

O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyati ko‘p jihatidan o‘qituvchi nutqiga bog‘liq. Chunki odatda dars mashg‘ulotlarining uchdan ikki qismi o‘qituvchi nutqi asosida amalga oshadi. Ya’ni o‘qituvchi nutqi bilan o‘quvchilarga ma’lumotlarni yetkazadi, ta’lim jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, monitoring o‘tkazadi, loyihalashtiradi, o‘quvchilar bilan individual ishlaydi. O‘qituvchi nutqining maqsadga muvofiqligi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

Kompetensiya – mutaxassisning faoliyati davomida o‘zlashtirgan nazariy ma’lumotlarni, amaliy tajribalarini, egallagan ko‘nikma va malakalarini amaliy faoliyatda o‘rinli qo‘llay bilishidir.

Kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, kommunikativlik, tashabbuskorlik, konstruktivlik, axborotlar bilan ishlash malakasi, ijtimoiy kirishimlilik kabilar pedagogik kompetentlikning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Pedagogik kompetensiyalarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan ta’lim – bo‘lajak o‘qituvchilarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda pedagogik faoliyatlarida qo‘llay olish sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik ta’limdir.

Xo‘sh,hozirgi kunda kompetensiyaviy y ondashuvga asoslangan DTS nima uchun zarur bo‘lib qoldi. Bu savolga javob berish uchun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy tarkibiy qismlariga e’tibor qaratish lozim. Ya’ni, ta’lim tizimi, shaxs, davlat va jamiyat, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo‘lgan milliy modelning ayrim qismlaridagi ulkan o‘zgarishlar, xususan, davlat va jamiyatning tubdan o‘zgarishi hayotimizga kirib kelgan axborot-kommunikatsion vositalar, fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va oldingi yoshlardan tubdan farq qiluvchi o‘zgacha fikrlovchi yoshlarning vujudga kelganliklarini keltirish mumkin.

Undan tashqari, butun dunyoda bo‘layotgan ta’lim sohasidagi islohotlar ham, xususan Janubi–sharqiy Osiyo mamlakatlari, Yevropa va Amerika qit’asidagi 10-15 yildan buyon amalga oshirilayotgan ta’limiy islohotlarni keltirish mumkin. Masalan, har uch yilda maktab talabalarining o‘zlashtirishini baholash bo‘yicha Xalqaro dastur (PISA) jahon mamlakatlari ta’lim tizimi sifatini o‘rganib chiqadi. PISA (Programme for International Student Assisment) dasturining maqsadi 15-16 yoshli o‘quvchilarning maktabda berilayotgan ta’limni qay darajada o‘zlashtirayotgani va ularni inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llay bilishini tadqiq etishdan iborat. PISA dasturi bo‘yicha birinchi tadqiqot 2000-yilda o‘tkazilgan va unda 32 davlat ishtirok etgan. 2003-yilda 43, 2006-yilda 57, 2009-yilda 65, 2012-yilda 65, 2015-yilda 70 dan ortiq davlat

ishtirok etgan. 2015-yilga dasturda 500 000 mingga yaqin o‘quvchi ishtirok etgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi deganda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy sifatlar yig‘indisiga aytiladi.

Kompetentlik atamasi umumiy ma’noda yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon; xabardor, omilkorlikni anglatadi.

Pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiradigan, talabalarning ta’lim-tarbiyasi sohasida yuqori darajadagi stabil natijalarga erisha oladigan o‘qituvchini professional kompetentli o‘qituvchi deyish mumkin.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi – bu kreativlikning rivojlanishi, pedagogik innovatsiyalarga qiziqishning shakllanishi, pedagogik muhitning o‘zgaruvchanligiga moslashuvchanlik qobiliyatidir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘qituvchining kasbiy darajasiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham oliy o‘quv yurtidayoq bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentlikka tayyorlash zarur.

N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayevlarning “Pedagogik kompetentlik va kreativlik” [3] nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida pedagogik kompetentlik tushunchasi mohiyati ochib berilgan va uning tarkibiy qismlari tahlil qilingan. Psixologik adabiyotlarda kompetentlik bu noan’anaviy va kutilmagan vaziyatlarda shaxsning o‘zini tuta olishi, atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olishi, muammoli vaziyatlarda noordinar qarorlar qabul qilishda va doimiy ravishda faoliyat rejasiga ega bo‘lishida namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi [3; 87-b.].

Kasbiy kompetentlik esa – biror bir kasb egasi tomonidan kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalar va tajribalarning egallash hamda ushbu tajribalardan kasbiy faoliyat davomida samarali foydalana olish ko‘nikmasidir.

Pedagogik kompetentlik o‘qituvchilarning sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdangina iborat bo‘lib qolmasdan, balki turli sohalar bo‘yicha integrativ bilimlar va tajribalarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassisning doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, tajribasini doimo boyitib borishni, zamonaviy bilimlarni va axborotlarni o‘zlashtirishni, jamiyat talablariga moslashib borishni va yangiliklarni amalda foydalana bilishni nazarda tutadi.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z ustida tinimsiz ishlaydi va zamonaviy bilimlar bilan boyitib boradi;
- dolzarb muammolarga doir ma’lumotlarni o‘zlashtirib boradi;
- jamiyat talablariga moslashadi;
- mutaxassislikka aloqador tajribalar integratsiyasi bilan shug‘ullanadi;
- o‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llay oladi.

XULOSA. Ma’lumki, ilm-fanning rivoji bevosita ta’lim-tarbiya natijasi hisoblanadi. Respublikamizda ushbu aqidaga tayangan holda ta’lim sohasini rivojlantirish, ushbu sohani kompetentli kadrlar bilan ta’minlash, milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ta’lim mazmunini qayta ishlab chiqish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatning buyuk kelajagi - yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odob, qalb egasi qilib tarbiyalash lozimligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Har qanday jamiyatda ham ushbu jamiyat maqsadini amalga oshirishda o‘qituvchilar asosiy vazifani bajaradi. Bunday g‘oya o‘z navbatida o‘qituvchi shaxsiga ham ijtimoiy, siyosiy, pedagogik, psixologik va metodik talablar qo‘yiladi. O‘qituvchi kasbiy e’tiqod egasi, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, dunyoqarashi boy, bilimli, kasbiy tayyorgarlikka ega, ijtimoiy muloqot ustasi,

fanni o‘qitish metodikasi va psixologik-pedagogik bilimlarni chuqur egallagan bo‘lishi hamda o‘z faoliyati va o‘quvchilar bilimini obyektiv baholashni mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

Zamonaviy o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy qiyofasi, kasbiy e’tiqodi yuksak, kasbiy xususiyatlar egasi va o‘quv-tarbiyaviy jarayonni to‘g‘ri tashkil eta olishi, samarali boshqara olishi muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limning sifati, samaradorligi o‘qituvchi zimmasiga, uning izlanuvchanligi, fidoyiligi, o‘z mas’uliyatini qay darajada his etishiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Darslarni zamonaviy usulda tashkil etish uchun bir qator metodik va pedagogik talablarga qat’iy rioya qilish lozim. Birinchi navbatda, o‘qituvchi nazariy va metodik tomondan yaxshi ta’minlangan va o‘z kasbining jonkuyar fidoyisi bo‘lmog‘i darkor. Ikkinchidan esa, estetik did bilan ma’lum bir tizimda ishlangan ko‘rgazmali qurollar va tarqatma didaktik materiallarga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, o‘zi o‘qitayotgan sinf o‘quvchilarini o‘z farzandi mehri bilan sevishi va o‘z oldiga yosh avlodni kelajakning yetuk hamda barkamol avlodi etib tarbiyalashdek murakkab va mas’uliyatli vazifa turganini unutmasligi lozim.

O‘qituvchi, birinchi navbatda, jamiyat faol a’zosi sifatida ning o‘z pozitsiyasiga, o‘rniga ega bo‘lishi va buni atrofidagilarga bildira olishi lozim. Shu bilan birga o‘z kasbini sevishi, hurmat qilishi, jamiyat me’yorlari va qonun-qoidalariga amal qiladigan fuqaro bo‘lishi muhimdir.

Shuningdek, o‘qituvchi doim yangilikka intilishi, innovatsion faoliyatini va uning samarasini ommalashtirib borishi lozim.

Uchinchidan, kasbiy e’tiqod egasi bo‘lgan o‘qituvchi muammoli vaziyatlardagi nostandart yechimlari, mustaqil tafakkuri, o‘z kasbi va fanga hurmati bilan atrofidagilarga o‘rnak bo‘ladi.

Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilar ekan. Uning kompetentligining ajralmas qismi faollik va bilimdonlik darajasi masalasi ham o‘ta muhim.

Bular ijtimoiy faollik - ta’lim-tarbiya jarayonida faol va sog‘lom muloqot o‘rnata olish, turli vaziyatlarda liderlik sifatlarini namoyon etishi bilan belgilanadi.

Metodik bilimdonlik sohaga doir bilimlarini, tajribalarini yosh avlodga tushunarli holda yetkaza olishi, ta’lim metodikasi va turli texnologiyalarini faoliyati davomida qo‘llay olish qobiliyati.

Kasbiy bilimdonlik o‘z fanini, fan metodikasini, psixologiya va pedagogikaga doir chuqur nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirish hamda to‘g‘ri foydalana bilish qobiliyatidir.

Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, o‘z ishining natijasi bilan mo‘jizalar yaratadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi.

O‘qituvchilarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasiga doir kuzatuvlarimiz natijasida, zamonaviy pedagog e’tiqodli, har tomonlama shakllangan, mustaqil tafakkur egasi, pedagogik bilim, pedagogik qobiliyat hamda pedagogik texnikani egallagan bo‘lishi, egallagan nazariy bilimlarini amalda samarali va o‘rinli qo‘llay oladigan bo‘lishi, o‘z faoliyatini pedagogik jarayonni to‘g‘ri baholay olishi zarur, degan xulosaga keldik.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дистерверг А. Руководство к образованию немецких учителей // Народное образование, 2001. - № 1. 11-16 с. (Guide to the Education of German Teachers).
2. Ушинский К.Д. Педагогические сочинения: в 6 т. Москва: Педагогика, 1990. Т.6. 528 с. (Pedagogical essays).
3. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик. – Тошкент, 2015. – 120 б. (Pedagogical competence and creativity).

4.Гришина И.В. Профессиональная компетентность руководителья школы как объект исследования. – Москва: Наука, 2002. – 231 с. (Professional competence of the school principal as an object of research).

5. Нуруллаева Ш.У. Бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик таълим жараёнида ўз устида ишлаш тизими // Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. № 12. 2020. 68-71-б. (The system of future teachers' work on themselves in the process of pedagogical education).

6. Нуруллаева Ш.У. Педагогик маҳорат ва компетентлик: мазмуни, шакллантириш методикаси ва ривожлантириш йўллари // Педагогик маҳорат. № 1. 2021. 19-22 б. (Pedagogical skills and competence: content, methods of formation and ways of development).